

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TILGA OLINGAN AYRIM SHAYX VA AVLIYOLAR HAQIDAGI HIKOYATLARNING MA'NAVIY AHAMIYATI

Parmonova Sevara, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 1-kurs tayanch doktoranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida nomlari zikr etilgan Robia Adaviya hamda Ibrohim Adham kabi so‘fiylar haqidagi ayrim hikoyatlar tahlil qilingan bo‘lib, Alloh ishqı ularda qay darajada kuchli bo‘lganligi, bugungi kun kishilari ulardan qanday o‘rnak olishi mumkinligi borasidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: So‘fiy, tavba, tazkira, manoqib.

Annotation: This article analyzes some stories about Sufis such as Rabia Adavia and Ibrahim Adham, whose names are mentioned in the works of Alisher Navai, and how the love of God was strong in them, and how people of today can learn from them.

Key words: Sufi, repentance, tazkira, manokib.

Аннотация: В данной статье анализируются некоторые истории суфиях, таких как Робия Адавия и Ибрагим Адхам, имена которых упоминаются в произведениях Алишера Навои, и вдохновляются мнения о том, насколько сильна бывает в них любовь к Богу, и как люди сегодня можно поучиться у них.

Ключевые слова: суфий, покаяние, тазкира, манокиб.

XV asrning taniqli shoiri va davlat arbobi Alisher Navoiy turkiy adabiyotning markaziy siyoshi bo‘lib hisoblanadi. Uning ta’lim, din, tasavvuf, siyosat, madaniyat va ma’rifatga oid asarlari bugungi kun uchun ham ahamiyatini yo‘qotmagan deb bemalol aytal olamiz.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi bilan bog‘liq. Ushbu tazkirada nomlari zikr etilgan islom arboblarining hayoti, faoliyati, tavbalari, karomatlari aks etgan hikoyatlar salmoqli ahamiyat kasb etadi. o‘tmishda juda ko‘plab avliyolar va shayxlar yashab o‘tishgan bo‘lib, ulardan ayrimlari Allohnning karomatiga, ilohiy sifatlarga tu g‘ma ravishda sohib bo‘lishgan bo‘lsa, ayrimlari hayoti davomida oddiy insonlar kabi yashab, ko‘pgina xatoliklarga qo‘l urishgan. Ammo so‘nggida tavba qilib haqqa yetishishgan. Ruhiy sadoqat va zohidlik razmi bo‘lgan shoh Ibrohim Adham va Robia Adaviya nomlari Alisher Navoiy asarlarida tez-tez tilga olinadi. Podshoh sifatida rohat-farog‘atda yashab turib, ikki darveshning birgina tanbehidan o‘ziga xulosa ola olgan, qolgan umrini toat-ibodatda o‘tkazishga bel bo g‘lagan ushbu inson haqida Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining 2-maqolati(Islom bobida)da shunday ta’rif beradi:

"Килди чу Адҳам халафи тарки жох,
Тожи фано бошиға кўйди Илоҳ."¹

Ya'ni, uzoq vaqt shohlik qilgan, mol-dunyo ichida yashagan insonning dunyo tojini tark etishi unga Alloh tomonidan fano tojining kiydirilishiga zamin yaratdi. Shu tariqa u Ka'ba ishtivoqi tomon uzun yo'lga yayov chiqdi. Yo'lida har qadamda ikki rak'at namoz qilib, naq o'n to'rt yil deganda Ka'ba joylashgan yerga yetib bordi. Ammo borgach ne ko'z bilan ko'rsinki, Bayt ul-Harom o'rnidagi yo'q edi! Ma'lum bo'lishicha, u Allohga bo'lgan shavq-u ishtivoqdan qaddi bukilgan, natijada yo'l yura olmay qolgan Robiya Adaviyani tavof qilish uchun ketgan ekan! Ibrohim Adham bu voqeadan qattiq hayratga tushib, Robiyani ko'rish uchun yo'lga tushadi va biroz o'tgach u bilan uchrashadi. "Men shuncha mashaqqat chekib, har qadamda ikki rak'at namoz o'qib Ka'ba tavofiga kelsam-u, ne ajabki, ranj menga, ganj esa senga bo'lib, Ka'ba seni tavof qilish uchun ketibdi! Bunga qanday erishding", deya so'ragan Ibrohimga Robiyaning javobi quyidagicha bo'lgan:

Робиа деди анга: «Огоҳ бўл,
Ким неча йил бодияда борча йўл,
Бўлди ишинг арзи намоз айламак,
Шева манга арзи ниёз айламак.
Санга самар берди намозу риё,
Бизга бу бар берди ниёзу фано.²

Ya'ni, sen shuncha yil davomida faqat namoz o'qish bilan mashg'ul bo'lding, men esa niyoz bilan butun borli g'imni Allohga topshirdim, deydi Robia.

"Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida ham Navoiy Robia Adaviya haqida "Basra ahlidan erdi. Sufyon Savriy r.a.andin masoil so'rar erdi va aning mav'izotu duosig'a rag'bat ko'rguzur erdi."³ deya ta'rif berishdan boshlaydi. Hazrat Navoiy Robia Adaviya bilan bog'liq manoqiblarlarni keltirar ekan, so'fiy ayolning avliyolik darajasiga, ma'rifat sirlarini puxta anglagan hozirjavobligiga urg'u beradi. Jumladan, shayx Sufyon Savriy (r. A.) bilan bog'liq suhbat-manoqib keltiriladi: "Bir kun Sufyon Robia q. s. qoshig'a kirdi va ilig ko'tarib dediki, [Allohim, sendan salomatlik so'rayman]. Robia yig'ladi. Sufyon so'rdiki, ne uchun yig'lading? Robia dediki, sen meni yig'latding! Sufyon dedi: Nechuk? Robia dediki, salomat dunyoda aning tarkidadur va sen dunyoga oludasen. Robia so'zidurki, har nimaga samarayedur va ma'rifat samarasasi yuz Tengriga kelturmakdur"⁴ Mazkur

¹ Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. - ТОШКЕНТ: Ф.Фулом нашриёти, 1989-йил. - Б. 86

² Ўша асар, 87-б.

³ Навоий, Алишер. Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват: Ўзбекистон мусулмонлари идораси, Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат Шарқшунослик институти; илмий-танқидий матн асосида кирил ёзувига табдил, - Т.: Мовороуннахр, 2017. - 522-б.

⁴ Ўша асар, 522-б.

manoqibda inson ruhi kibr va manmanlik kabi turli iflosliklardan xoli, pok holda yaratilganligi, ammo foni yunyoda yashab, “oluda” (ifloslanmoq, bulg‘almoq) holda kelishiga, ya’ni tashqi ta’sirlar asosida shunday holda bo‘lishi mumkinligi Robiya Adaviya nutqida beriladi.

Navoiy keltirgan yana bir manoqibda ham shayx Sufyon bilan bog‘liq suhbat beriladi. Unda aytishicha, shayx Robiya Adaviyadan bandaning haq taolodan so‘raydigan eng yaxshi narsasi nima deb so‘raydi. Shunda Bibi Robiya dunyo va oxiratda Haq sevgisidan o‘zga narsa maqbul ermas, degan mulohazani aytadi: “Sufyon andin so‘rdiki, banda Tengri taolog‘a taqarrub tilar nimalardin yaxshirog‘i qaysidur? Ul dedi, uldurki, bilgayki, dunyo va oxiratda andin o‘zgani sevmas.”⁵

Tazkirada Ibrohim Adham haqida kunyati Abu Ishoq va oti va nasabi Ibrohim ibn Adham ibn Sulaymon, ibn Mansur al-Balxiy ekanligi aytib o‘tilgan. Navoiy Ibrohimning yigit cho g‘ida, ovga chiqar ekan bir hotifiyning “Ey Ibrohim, seni bu ish uchun yaratmaydurlar” degan so‘zlaridan ta’sirlanib tavba qilganligini yozadi. Shundan so‘ng Ibrohim Adham saroyi va mulkini tark qilib Makkaga boradi, u yerda Sufyoni Savriy, Fuzayl ibn Iyoz va Abu Yusuf G‘usuliy suhbatiga yetishadi. Navoiy Ibrohimning qolgan umrida halol kasb bilan juda kamtarona hayot kechirgani, yaqin yoronlari borligi, Shomda vafot etganligi haqida yozar ekan, aslida uning holotini zikr qilinsa bir kitob ham yozish mumkinligini, lekin muxtasar qilishni ma’qul ko‘rganini yozib, fikrlarini tugatadi.

Xulosa sıfatida aytish mumkinki, ulug‘ shayxlar, islom ulamolarining hayot yo‘llari, go‘zal tavbalari haqidagi hikoyatlarni o‘qir ekanmiz, ular bizga bu dunyo ne’matlariga, lazzatiga aldanib qolmaslikni, bu dunyodagi shohlik yoki faqirlik narigi dunyodagi abadiy hayotimizda ahamiyatga ega emasligini, balki fursat bor ekan, kim bo‘lsak ham tavba qilib ezgu amallarda peshqadam bo‘lishimiz kerakligini eslatadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. - ТОШКЕНТ: Ғ.Ғулом нашриёти, 1989-йил.
2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аббор. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, Т.7. – 392 б.
3. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2001. Т.17. – 520 б.
4. Алишер Навоий. Ҳамса: Ҳайрат ул-аббор. Фарҳод ва Ширин. ТАТ. 10 жилдлик. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2011. Ж.6. – 808 б.

⁵ Навоий, Алишер. Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват: Ўзбекистон мусулмонлари идораси, Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат Шарқшунослик институти; илмий-танқидий матн асосида крилл ёзувига табдил, - Т.: Моворуиннахр, 2017. – 522-б

5. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр (насрий баёни билан) / Таҳрир ҳайъати: А.Қаюмов ва бошқ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 352б.
6. Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари. Мақолалар тўплами. –Т.: «Фан»б 1993.
7. Навоий, Алишер. Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват: Ўзбекистон мусулмонлари идораси, Ўзбекистон Республикаси олий ва ўрта маҳсус таълим вазирлиги, Тошкент давлат Шарқшунослик институти; илмий-танқидий матн асосида крилл ёзувига табдил, - Т.: Мовороуннахр, 2017. – 522-б.